

Korrupsiya – rivojlanish uchun to'siq!

Bosh qomusimiz qabul qilinganiga 29 yil to'lgani munosabati bilan va 9-dekabr Butun jahon Korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan , joriy yilning 9-dekabr kuni universitetimiz konferensiyalar zalida "Prokuratura faoliyatidagi shaffoflik" mavzusida davra suhbatini o'tkazildi. Tadbirimiz mehmonlari O'zbekiston Respublikasi bosh prokuraturasi boshqarma katta prokurorlari Qurbonova Mohira Jaylavovna, Mamarahimova Shahodat Yusupovnalari yoshlarimizga Konstitutsiyamizda shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro huquq hamda majburiyatlari va ularning kafolatlari to'g'risida, pandemiya davrida olib borilayotgan ijtimoiy himoyaga asoslangan islohotlar to'g'risida ma'lumotlar berdilar hamda Korrupsiya – har qanday jamiyatning taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan illat ekanligini hayotiy dalillar bilan asoslab berdilar. Tadbirning yana bir mehmoni Ta'lim muassasalaridagi Yoshlar bilan ishlash boshqarma boshlig'i o'rinbosari Eshqulov Mardonbek , Yoshlar siyosati sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so'zlash bilan birgalikda talaba yoshlarni qiziqtirayotgan savollarga atroflicha javob va ko'rsatmalar berdilar.